



XX ASRNING 60 - YILLARIDA TURKIYADAGI IJTIMOIY - SIYOSIY VAZIYATLARNING KESKINLASHUVI VA UNING OQIBATLARI

Jabborova Halima Akmaljon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 60-yillarida Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarning keskinlashuvi va uning oqibatlarini tahlil qiladi. Turkiyada harbiy to'ntarish, talabalar harakati, siyosiy partiyalar o'rtasidagi kurashlar, iqtisodiy inqirozlar va ijtimoiy noroziliklarning rivojlanishi batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu davrdagi o'zgarishlar, Turkiyaning siyosiy tizimida qanday izlar qoldirganligi, ijtimoiy va siyosiy harakatlarning yangi shakllari qanday paydo bo'lgani, va bu jarayonlarning Turkiyaning kelajakdagi siyosiy va ijtimoiy tizimiga qanday ta'sir ko'rsatganligi ham tahlil qilinadi. Turkiyaning 1960-yillardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatining tahlilini, tarixiy, siyosiy va iqtisodiy omillarni birlashtirib ko'rsatadi va Turkiya tarixinining ushbu muhim davrining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstida uning oqibatlarini o'rGANISH UCHUN MUHIM MA'lUMOTLAR beradi.

Kalit so'zlar: Turkiya, 1960-yillar, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, siyosiy isyonlar, talabalarning noroziligi, militarizm, iqtisodiy o'zgarishlar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tengsizlik, xalq harakatlari.

Аннотация. В статье анализируется обострение общественно-политической ситуации в Турции в 1960-е годы и его последствия. Будет подробно рассмотрено развитие военного переворота, студенческих движений, борьбы политических партий, экономических кризисов и социальных протестов в Турции. В нем также анализируются изменения, произошедшие в этот период, какие следы они оставили в политической



системе Турции, как возникли новые формы социальных и политических движений и как эти процессы повлияли на будущую политическую и социальную систему Турции. В нем представлен анализ социально-политической ситуации в Турции в 1960-х годах, включающий исторические, политические и экономические факторы, а также представлена важная информация для изучения последствий этого важного периода в истории Турции в политическом, социальном и экономическом контексте.

Ключевые слова: Турция, 1960-е годы, социально-политическая ситуация, политические восстания, студенческие протесты, милитаризм, экономические изменения, политические партии, социальное неравенство, народные движения.

Annotation. The article analyzes the aggravation of the socio-political situation in Turkey in the 1960s and its consequences. The development of the military coup, student movements, political party struggles, economic crises and social protests in Turkey will be discussed in detail. It also analyzes the changes that occurred during this period, what traces they left in the political system of Turkey, how new forms of social and political movements emerged and how these processes influenced the future political and social system of Turkey. It presents an analysis of the socio-political situation in Turkey in the 1960s, including historical, political and economic factors, and provides important information for studying the consequences of this important period in Turkish history in a political, social and economic context.

Keywords: Turkey, 1960s, socio-political situation, political uprisings, student protests, militarism, economic changes, political parties, social inequality, popular movements.

KIRISH

XX asrning 60-yillari Turkiya tarixida muhim o‘rin egallaydi, chunki bu davrda mamlakatda siyosiy va ijtimoiy muammolar keskinlashdi. 1950-yillardan



keyin iqtisodiy inqirozlar, siyosiy beqarorlik va ijtimoiy noroziliklar kuchaygan. Talabalar, ishchilar va qishloq aholisi o‘rtasidagi ijtimoiy tafovutlar ortib bordi.

XX asrning 60-yillari Turkiya uchun siyosiy va ijtimoiy jihatdan o‘zgarishlar va inqirozlar davri bo‘ldi. Bu davrda mamlakatda ijtimoiy beqarorlik, siyosiy ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlar keskinlashdi, bu esa Turkiyaning siyosiy tizimiga, jamiyatiga va xalqning hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. 1960-yilda sodir bo‘lgan birinchi harbiy to‘ntarish, Turkiyaning siyosiy tuzilmasida katta o‘zgarishlarga olib keldi. Harbiy rejim hukumatni ag‘dardi, yangi konstitutsiya va siyosiy islohotlar amalga oshirildi. Biroq, bu o‘zgarishlar mamlakatdagi siyosiy beqarorlikni to‘xtatishga qodir bo‘lmadi, aksincha, ularni yanada kuchaytirdi. 1960-yillar davomida, iqtisodiy inqirozlar, siyosiy partiylar o‘rtasidagi kuchli kurashlar, talabalar harakati, ishchilar noroziliklari va ijtimoiy tengsizliklar mamlakatda kuchli ijtimoiy harakatlarga olib keldi. Odamlar o‘z huquqlarini talab qilish va mamlakatdagi adolatsizliklarga qarshi chiqish uchun birlashdilar. Ushbu davrda ijtimoiy adolatsizlik, iqtisodiy farqlar va siyosiy beqarorlik kuchayib, Turkiyada yangi siyosiy tashkilotlar va harakatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Ushbu maqola davomida Turkiyadagi 60-yillardagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatning tahlili orqali, bu o‘zgarishlarning mamlakatning siyosiy va ijtimoiy tizimiga qanday ta’sir qilganini ko‘rish mumkin.

METODOLOGIYA

Maqolada asosiy manbalar sifatida Turkiya tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar, siyosiy maqolalar, jurnallar va statistik ma’lumotlar ishlataligan. 1960-yillar Turkiyasining siyosiy va ijtimoiy holatini tahlil qilishda, asosan, siyosiy partiylar, talabalar harakati, iqtisodiy muammolar va harbiy to‘ntarish kabi omillarni ko‘rib chiqdik. 1960-yillar Turkiyasining siyosiy va ijtimoiy holatiga oid mavjud adabiyotlar tahlil qilingan, shuningdek, Turkiyaning o‘sma davrdagi siyosiy va iqtisodiy kontekstiga oid tarixiy dalillar keltirilgan. Ijtimoiy-siyosiy



o‘zgarishlarning qisqacha tahlili orqali, o‘sha davrning asosiy muammolari va o‘zgarishlarining oqibatlari o‘rganilgan.

Turkiyada 1960-yillarda siyosiy vaziyatning keskinlashuvi

1960-yillar Turkiya siyosatida beqarorlik va kuchli o‘zgarishlar davri bo‘ldi. 1950-yillardan keyin mamlakatda siyosiy tengsizlik kuchaygan, hukumatning ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilishdagi zaifligi aholi orasida noroziliklar keltirib chiqargan. 1960 yil 27 mayda Turkiyadagi birinchi harbiy to‘ntarish yuz berdi. Harbiy rejim, Turkiya Demokratik Partiyasining hukumatini ag‘darib, yangi, harbiy va sivil hukumatchilarni kiritgan koalitsion hukumatni shakllantirdi. Harbiy to‘ntarishning sabablari orasida iqtisodiy inqiroz, siyosiy beqarorlik, va Turkiya xalqining hukumatga nisbatan noroziligi bor edi.

To‘ntarishning natijasida, Turkiyada o‘zgarishlar boshlandi. Harbiy hukumat tomonidan yangi Konstitutsiya tayyorlandi va siyosiy tizimni o‘zgartirish uchun bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ammo, harbiy rejimning hukumatga qarshi noroziliklarni bostirishga urinishlari, ijtimoiy keskinlikni yanada kuchaytirdi.

1960-yillar Turkiyasida iqtisodiy va ijtimoiy inqirozlar

1960-yillar davomida Turkiyada iqtisodiy inqirozlar ham keskinlashdi. 1950-yillarda xalqaro yordam va ishlab chiqarishning pasayishi ortidan, iqtisodiyot o‘sish sur’atlarini sekinlashtirdi. Ishlab chiqarishning pasayishi, ko‘plab sanoat tarmoqlarining zaiflashishi, va eksportning qisqarishi, ishchilarni noroziliklarga olib keldi.

Qishloq aholisining iqtisodiy ahvoli ham yomonlashdi. Bu davrda Turkiyada ijtimoiy tengsizlik kuchaydi, chunki qishloq joylarida yashovchi odamlarning iqtisodiy ahvoli shaharlarga nisbatan ancha past edi. Ushbu tafovutlar, ijtimoiy noroziliklarni kuchaytirgan, va shu bilan birga, ijtimoiy va siyosiy harakatlarning faollashishiga olib kelgan.



Talabalar harakati va siyosiy faollik

Turkiyada 1960-yillarda talabalar harakati ham katta rol o‘ynadi. Talabalar, iqtisodiy inqirozlar va siyosiy beqarorlikka nisbatan o‘z noroziliklarni bildirdilar. 1960-yillar o‘rtalarida talabalar ko‘plab namoyishlar va mitinglar o‘tkazdilar. Ular, bir tomonidan, iqtisodiy adolatni ta’minlashni talab qilishdi, ikkinchi tomonidan esa siyosiy tizimdagagi erkinliklarni kengaytirishni xohlashdi.

Talabalar harakati, shuningdek, Turkiya tarixidagi ijtimoiy o‘zgarishlarning birinchi namoyishi sifatida baholanishi mumkin. Talabalar nafaqat o‘z huquqlarini himoya qilish uchun, balki, mamlakatdagi siyosiy tizimni isloq qilish uchun ham kurashdilar. Bu harakatlar 1970-yillar davomida kuchayib boradi.

Harbiy to‘ntarishning natijalari va siyosiy tizimdagagi o‘zgarishlar

1960-yilgi harbiy to‘ntarishdan keyin Turkiyada hukumatning shakllanishi va siyosiy tizimda o‘zgarishlar yuz berdi. Harbiylar tomonidan tuzilgan yangi konstitutsiya va siyosiy islohotlar, o‘sha davrda siyosiy muxolifatning kuchayishiga sabab bo‘ldi. 1960-yillarda siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar o‘rtasidagi kurashlar kuchaygan, bu esa mamlakatda beqarorlikni yanada oshirdi.

1961 yilda yangi Konstitutsiya qabul qilindi, bu konstitutsiya 1960-yilgi harbiy to‘ntarishdan so‘ng siyosiy tizimning yangilanishini belgilovchi huquqiy asos bo‘ldi. Ammo, yangi konstitutsiya va siyosiy islohotlarga qaramay, Turkiyada siyosiy kuchlar o‘rtasidagi kurashlar davom etdi va bu o‘zgarishlar mamlakatdagi siyosiy beqarorlikni to‘xtatishga qodir bo‘lmadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1960-yillarda Turkiyada siyosiy beqarorlik, talabalar harakati va ishchi to‘ntarishlari o‘sib bordi. 1960 yilgi harbiy to‘ntarishdan so‘ng, mamlakatda siyosiy partiyalar va harbiy rejimlar o‘rtasida davom etgan kurashlar, ijtimoiy noroziliklarni kuchaytirdi. Ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy inqirozlar mamlakatda aksariyat odamlarni siyosiy faollikka undadi. Talabalar, ishchilar va qishloq aholisi o‘rtasida keng tarqalgan noroziliklar, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarni



qo'llab-quvvatlashni kuchaytirdi. 1960-yillardagi bu ijtimoiy harakatlar va siyosiy beqarorliklar, keyingi yillarda Turkiyaning siyosiy va ijtimoiy tizimida muhim o'zgarishlarga olib keldi.

Turk tarixshunoslari va siyosatshunoslari, 1960-yillarda Turkiyadagi siyosiy vaziyatni asosan ijtimoiy beqarorlik, harbiy to'ntarish va partiyalar o'rtasidagi kuchli kurashlar kontekstida ko'rib chiqadilar. Ulardan ba'zilarining fikriga ko'ra, 1960-yillardagi siyosiy beqarorlikning sabablaridan biri bu, Turkiyaning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi muvaffaqiyatsizlik edi. **Kemal Karpat** (1985) o'zining turk tarixiga oid tadqiqotlarida, 1960-yillarda Turkiyadagi ijtimoiy va siyosiy beqarorlikni "yangi kapitalistik tizimning jiddiy ijtimoiy tengsizliklar va sinfiy farqlarni keltirib chiqargan natijasi" deb ataydi.

Mustafa Aksakal (2001) esa 1960-yilgi harbiy to'ntarishning sabablarini mamlakatdagi partiyalar o'rtasidagi siyosiy kurashlar va ijtimoiy faollilikning kuchayishiga bog'laydi. Aksakalning fikricha, talabalar harakati va ishchi noroziliklari harbiy to'ntarishning jiddiy omillaridan biri bo'ldi, chunki ular hukumatning siyosatiga qarshi chiqishda birlashdilar. Shuningdek, 1960-yillardagi harbiy to'ntarish va uning natijalari Turkiyada "yangi siyosiy muvozanat"ni yaratdi, ammo bu, o'z navbatida, mamlakatda davom etgan beqarorlikni yanada kuchaytirdi.

Ismail Beşikçi (2006) esa, o'zining "Sosyalizm ve Türk Solu" asarida 1960-yillarni Turkiyadagi siyosiy harakatlarning faollashishi va mamlakatning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy tuzilishini shakllantirish davri sifatida tahlil qiladi. Beşikchi, ayniqsa, 1960-yillarni Turkiyada o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy harakatlarning eng yuqori cho'qqisi sifatida baholaydi. U ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy tengsizliklarning kuchayishi, siyosiy harakatlarning faollashishini yanada kuchaytirdi, bu esa oxir-oqibat ijtimoiy inqirozlarga olib keldi.



Xorij olimlari, Turkiyaning 1960-yillardagi siyosiy vaziyatini o‘rganishda Turkiyaning geosiyosiy holatini ham hisobga olishgan. William Hale (2013), Turkiya siyosatining tahlilida, 1960-yillarni "geosiyosiy ziddiyatlar davri" sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, 1960-yillardagi siyosiy beqarorlik va ijtimoiy inqirozlar, nafaqat mamlakat ichidagi siyosiy kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, balki Turkiyaning Sovet Ittifoqi va G‘arb bilan olib borilgan siyosiy aloqalaridagi murakkabliklarga ham bog‘liq edi. Bu vaqt davomida Turkiya o‘zining demokratik jarayonlari va harbiy diktatura o‘rtasida qaror qilishga majbur bo‘ldi.

Homi Kharrazi (1999) o‘zining "Middle East Politics: A Global Perspective" asarida, 1960-yillarda Turkiyada yuzaga kelgan siyosiy beqarorlikni, Turkiyaning iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarga moslashishga bo‘lgan qobiliyatsizligi bilan izohlaydi. U 1960-yillardagi ijtimoiy-siyosiy noroziliklarning kuchayishini, mamlakatning yangilanishga, modernizatsiyaga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘laydi. Kharrazi, ayniqsa, Turkiyadagi ijtimoiy tengsizlik, ta’lim va iqtisodiy islohotlarga bo‘lgan talablar kuchayganini va bu o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi kechikishlar siyosiy beqarorlikni yanada kuchaytirganini ta’kidlaydi.

Serif Mardin (2002) esa, Turkiyada 1960-yillardagi siyosiy beqarorlikni, "orientalizm" va "modernizm" o‘rtasidagi qarama-qarshilik sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, 1960-yillardagi siyosiy o‘zgarishlar, ayniqsa, talabalar harakati va xalq harakatlari orqali, o‘sha davrdagi Turkiyaning ijtimoiy va siyosiy tizimining o‘ta konservativligiga qarshi bosh ko‘tarish edi. Mardin Turkiyadagi bu jarayonni "xalqning ijtimoiy va siyosiy haq-huquqlarini talab qilgan inqilobiy jarayon" sifatida baholaydi.

Turkiyaning 1960-yillardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatining keskinlashuvi, nafaqat mamlakatning ichki siyosiy tizimiga, balki uning global kontekstidagi o‘rni va rollariga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda sodir bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar va ijtimoiy harakatlar, Turkiyaning iqtisodiy va siyosiy tizimini yangilash zaruriyatini ko‘rsatdi. Harbiy to‘ntarish, talabalar harakati, siyosiy beqarorlik va



ijtimoiy noroziliklarning kuchayishi, mamlakatni yangi siyosiy muvozanatni izlashga majbur qildi.

Turk va xorij olimlarining tahliliga ko‘ra, 1960-yillarda Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, o‘sha davrning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlarining zaifligini namoyish etdi. Biroq, bu o‘zgarishlar, Turkiyaning kelajakdagi siyosiy hayotida, ijtimoiy tengsizlik va siyosiy islohotlar orqali ijtimoiyadolatni ta’minlashga qaratilgan yangi imkoniyatlarni yaratdi.

Bu davrning oqibatlari, Turkiyaning siyosiy tizimida, harbiy va sivil hokimiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni shakllantirdi va mamlakatda yangi siyosiy harakatlar va tashkilotlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. 1960-yillardagi bu siyosiy beqarorlik va ijtimoiy harakatlar, Turkiya jamiyatining har tomonlama yangilanishi va modernizatsiyasi uchun mustahkam asos bo‘ldi.

XULOSA

XX asrning 60-yillari Turkiya uchun ijtimoiy-siyosiy inqirozlar va o‘zgarishlar davri bo‘ldi. XX asrning 60-yillari Turkiyada siyosiy va ijtimoiy vaziyatning keskinlashuvi, xalq orasida siyosiy faollikni oshirdi. Harbiy to‘ntarishlar, talabalar noroziliklari va ijtimoiy tengsizlik, mamlakatning siyosiy hayotida chuqur izlar qoldirdi. Bu davr Turkiyaning siyosiy tizimining shakllanishi va xalq harakatlarining kuchayishi nuqtai nazaridan muhim bo‘ldi.

Talabalar harakati, ishchilar noroziligi, siyosiy partiyalar o‘rtasidagi kuchli kurashlar va harbiy rejimning hukumatga ta’siri, Turkiyaning siyosiy va ijtimoiy hayotida o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu davrning oqibatlari, Turkiya siyosatining kelajakdagi shakllanishi va mamlakatdagi ijtimoiy harakatlarning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, 60-yillar Turkiya tarixidagi eng keskin davrlardan biri bo‘lib, ularning oqibatlari mamlakatning kelajakdagi siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlariga katta ta’sir ko‘rsatdi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. W.Hale. The Politics of Turkey: The Turkish Republic as a Contemporary State. London: Routledge.2013.
- 2.A.Mango Atatürk: The Biography of the Founder of Modern Turkey. London: John Murray. 2004.
3. K.Özdemir.Türkiye'de Sosyal ve Siyasi Hareketler: 1960-1980 (Social and Political Movements in Turkey: 1960-1980). İstanbul: Tarih Vakfı Yayınları.2007.
4. Ü.Cizre. The Kurdish Issue in Turkey: A Spatial Perspective. New York: Syracuse University Press. 1999.
5. Y.Yılmaz. Türk Modernleşmesi ve Siyasi Hareketler (Turkish Modernization and Political Movements). Ankara: Nobel Yayın Dağıtım. 2000.
6. E.Özbudun. Türk Siyaseti: Değişim ve Sürekllilik (Turkish Politics: Change and Continuity). İstanbul: Alfa Yayınları. 2009.
- 7.M.Erdem. 1960 Darbesi ve Türkiye'deki Toplumsal Değişim (The 1960 Coup and Social Change in Turkey). İstanbul: İletişim Yayınları. 2010.